



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and
Trends in Educational Sciences
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

SOME COMMENTS ON THE UZBEK NATIONAL DIALECTAL CORPUS

Abdimo'minova Shahzoda¹

Termiz State University

KEYWORDS

Uzbek dialectology, dialect corpus, dialect database, thematic metadata, genre, areal approach

ABSTRACT

In this article, we analyzed the stages of transition from theory to practice of Uzbek dialectology in a practical framework. Research conducted in this regard has been discontinued.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.11097932](https://doi.org/10.5281/zenodo.11097932)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of philology and language teaching (Uzbek language), Termiz State University, Uzbekistan

O'ZBEK MILLIY DIALEKTAL KORPUSIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

KALIT SO'ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

O'zbek dialektologiyasi,
shevalar korpusi, shevalar
bazasi, mavzuviy
metarazmetka, janr, areal
yondashuv

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada biz o'zbek dialektologiyasining amaliy doirada nazariyadan amaliyatga o'tish bosqichlari tahlilga tortilgan. Bu boradagi olib borilgan tadqiqotlarga to'xtab o'tilgan.

Bizga shu ma'lumki, dialektal korpuslarning ilmiy va amaliy ahamiyati shevalarining milliy korpusini tuzish, sheva birliklarining metarazmetkalarini va uning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish bilan belgilanadi. Demak, ushbu korpuslarga yig'ilgan sheva birliklari va shevani o'zida akslantirgan matnlar keyingi tadqiqotlar uchun ishonchliligi, o'tkazilgan so'rovnomalarda shevalarining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam bergenligi, ularning asosli ekanligi, metodologik jihatdan mukammalligi, amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan undan foydalanuvchiga keng ma'lumotlar bazasi va korpusini taqdim etadi².

Mazkur sohada dastlabki tadqiqotlar sifatida Xolova M.³ning ishlarini kuzatsak, keyinchalik Yuldasheva Z.⁴, Rustamova Z.⁵, Islomova Sh.larning⁶ tadqiqotlarini ko'rib o'tishimiz mumkin.

Jahon va o'zbek dialektologiyasini kuzatar ekanmiz, hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlar dunyo korpus lingvistikasida keng tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, o'zbek amaliy dialektologiyasida o'z yechimini kutib turgan muammolar yo'q emas. Shevalar korpusi uchun baza shakllantirish⁷, shevalar korpusini tuzish⁸, shuningdek, shevalar arealini amaliy doirada xaritalash⁹ kabi izlanishlar olib borilmoqda. Shunday ekan, Jarqo'rg'on tumani shevalarini bir korpusga jamlash ham o'zga xos bir necha bosqishli amaliy ishlarni ko'zda tutadi:

²Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.

³Xolova M. Jahon dialektal korpuslariga bir nazar //«Узбекские национальные образовательные здания теоретическое и практическое создание вопросы» Международная научно-практическая конференция. – 2023. – Т. 2. – №. 2.

⁴Matkarimovich I. Y., Yuldashevna I. Z. O 'ZBEK TILINING DIALEKTAL KORPUSINI YARATISH TAMOYILLARI //Konferensiylar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 27-29.

⁵Rustamova Z. O'ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGIVISTIK ASOSLARI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1255-1258.

⁶Islomova Sh. O'zbek shevalari korpuslari uchun dialektizm iboralarini talqin qilishning ayrim masaallari

⁷Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national Boysun dialect (on the example of Baysun district "j" dialects) //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 5. – С. 844-847.

⁸Abdulkhakimovna K. M. O 'ZBEK DIALEKTAL KORPUSIDA FE'LNING SINTAKTIK KATEGORIYASI (Surxondaryoviloyatishevalarimisolida) //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 2. – №. 2.

⁹<https://areal.dialect.uz/questionnaire>

1. Jahon korpus lingvistikasida amalda mavjud dialektal bazalarning tuzish tamoyillarini o'rganib chiqish, tahlil va tadqiq etish.
2. Shevalarbazasi tuzishning jahon standartlarini o'rganib chiqib, o'zbek tili shevalarining lingvistika soslarini tahlil etish.
3. Dunyo dialectal korpuslarini o'rganishdan orttirilgan tajribalarning ijobiy jihatlarini o'zbek tili shevalarining agglyutinativ xususiyatlarini hisobga olgan holda tatbiq etish.
4. Shevalar bazasini ishlab chiqish jarayonida o'zbek tilining izohli lug'atlarida shevalar tavsifi va talqinini o'rganish.
5. Shevalar bazasi va korpusi tarkibidagi shevalarning o'zbek tilining izohli lug'atlaridagi muqobil variantlarini to'la qamrab olinishini ta'minlash va adabiy tilga munosabatini tahlil etish.
6. Qo'lyozma shaklidagi shevaga oid birliklar, so'zlar, gaplar, matnlarni kompyuterga kiritish orqali electron matnlar va fayllarni yaratilishini tadqiq etish.
7. Shevalar bazasi va korpusi uchun yagona yunikodlarga ega transkripsion yozuv belgilarni ishlab chiqish.
8. Shevalar bazasi va korpusi uchun transliteratsion (dialect talaffuzining lotin yozuv formasiga asoslangan varianti) forma orqali foydalanish imkoniyatlarini beruvchi tizimi shlab chiqish.
9. Shevalar korpusining pasportizatsiyalash tamoyillarini belgilab chiqish.
10. Shevalar korpusining etnik aholining yashash tarzini qamrab oluvchi mavzuviy metarazmetkalarini ishlab chiqish.
11. Shevalar korpusida ma'lumotlar o'zgaruvchanligi kesimida ish ko'ruvchi dialektologik atlaslarni tizimini ishlab chiqish va hokazo.
12. O'zbek shevalaridagi matnlarning fonetik, morfologik va leksik-grammatik teglash tizimlari uchun yagona ramziy belgilarni ishlab chiqishning nazariy asoslarini berib o'tish¹⁰.

Korpusni tuzish nisbatan murakkab ishlardan biridir. Bu ish o'z-o'zidan ikki qismni tashkil etadi. Birinchi qism – shevalar bankini yaratish, ya'ni shevashunos olimlar tomonidan hozirga qadar olib borilgan ekspedisiya materiallari. Bular: oily ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar tomonidan dialectal amaliyotlar natijasida yig'ilgan dala qo'lyozmalari, audio va video yozuvlar, fotoapparatlarda tushirilgan suratlar banki; tadqiqotchi olimlar tomonidan ularning dialectal sayohatlari natijasida yig'ilgan dala qo'lyozmalar, audio va video yozuvlar banki: dialektologiya yo'nalishi doirasida nashrdan chiqqan o'quv darsliklari, o;quv qo'llanmalari, majmualari, dialektologik xaritalarga oid olib borilgan hududiy fonetik, leksik, grammatik so'rovnomalari hamda shevashunos olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yoritilgan ilmiy to'plamlar banklari yig'ilgan yagona bazani ko'rib chiqish. Ikkinci qism – yuqorida qayd etilgan audio va video fayllar uchun

¹⁰Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов // Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.

yagona yunikodlarga ega bo'lgan transkriptlarni ishlab chiqish. Buning uchun shevashunos tadqiqotchining ishlash maydonini tayyorlash kerak. Shevashunos tadqiqotchilarning ishslash maydoniga matnlar yig'uvchi va axborot beruvchi matnlarga ajratilishi, ma'lum belgilarni ko'rsatish uchun probel qo'yish, chunonchi, so'z va so'zshakllari ikkita alohida so'z sifatida qabul qilish: uyni, uyga, uyda, uydi yoki buvi-moma-sheshe va hokazo. Ishning aynan shu qismi anchayin murakkab bo'lib, tadqiqotchidan ko'p kuch va vaqt talab etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'zbek dialektologiyasida shevalarni bir korpusga yig'ish jarayonida jahon tajribalariga suyanmog'imiz darkor. Shevalar korpusi ustida ish olib borish uchun aniq bir tizimlilik asosida ishlarni yo'lga qo'ymoq, ham shakliy, ham hududiy korpuslarni ko'zdan kechirgan holda o'zbek shevashunosligidagi o'z yo'nalishni belgilab olishimiz lozim. Ushbu shevalar korpusini tuzishni tadrijiy, ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadida lingvistlar, shevashunoslari va dasturchilar bilan o'zaro kelishgan holda tuzilayotgan korpuslarning mundarijalarini tuzib chiqishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.
2. Xolova M. Jahon dialektal korpuslariga bir nazar //«Узбекские национальные образовательные здания теоретическое и практическое создание вопросы» Международная научно-практическая конференция. – 2023. – Т. 2. – №. 2.
3. Matkarimovich I. Y., Yuldashevna I. Z. O 'zbek tilining dialektal korpusini yaratish tamoyillari //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 27-29.
4. Rustamova Z. O'zbek tili dialektal korpusini yaratishning lingivistik asoslari //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 1255-1258.
5. Islomova Sh. O'zbek shevalari korpuslari uchun dialektizm iboralarini talqin qilishning ayrim masalalari
6. Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national Boysun dialect (on the example of Boysun district" j" dialects) //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 5. – С. 844-847.
7. Abdulkhakimovna K. M. O 'zbek dialektal korpusida fe'lning sintaktik kategoriysi (Surxondaryoviloyatishevalarimisolida) //Philological research: language, literature, education. – 2024. – Т. 2. – №. 2.
8. <https://areal.dialect.uz/questionnaire>
9. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.